

**JISMONIY TARBIYA O'QUVCHILARINI SPORT MASHG'ULOTLARI
JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH**

Ismoilov Sherzodbek Dilshodovich
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
Azamjonova O'g'ilxon Avazjon qizi
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada maktab o'quvchilarini milliy qadriyatlar yordamida milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning metodlari o'rganilib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, BO'SM, milliy qadriyat, ma'naviyat, sporchilar, kurash, mashg'ulotlar va xarakatli o'yinlar.*

Sportchilarda, ayniqsa, yoshlarda milliy qadriyatlarni singdirishda jismoniy tarbiya darslari, sport mashg'ulotlari va musobaqalar davr talablariga mos ravishda bo'lishi lozim. Bu o'ziga xos muammoviy ijtimoiy-tarbiyaviy jarayondir.

Qadriyatlarimiz buyuk bobokalonlarimiz Hakim at-Termiziy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur va boshqa juda ko'p allomalar siymosida jahonga mashhurdir.

Qadriyatlar mazmunida madaniyat, salomatlik, ijtimoiy mehnat, kasb-hunar va boshqa juda ko'p sohalar mavjuddir. Milliy madaniyat tarkibida esa xalq milliy o'yinlari (kurash, ko'pkari, poyga, dorboz va hokazo), zamonaviy sport turlari mujassamlashib bormoqda. Ular ommaviy tus olib, o'quvchi-yoshlarni o'ziga tobora jipslashtirmoqda. Qadriyatlarni qayta tiklash va ularni zamonaviy madaniyat mazmunlari bilan boyitib borishda "Navro'z", "Mustaqillik kuni" bayramlari, ko'p bosqichli uzluksiz sport o'yinlari ("Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada"), ayniqsa Prezident kubogi uchun o'tkazib kelinayotgan tennis bo'yicha Xalqaro turnirlar, Prezident sovrini uchun Kurash bo'yicha tashkil qilinayotgan Xalqaro turnirlar, shuningdek "Alpomish o'yinlari", "To'maris o'yinlari" Respublika festivallari maqsadli xizmat vazifalarini o'tamoqda. Ularning amaliy faoliyatlarida Madaniyat va sport ishlari vazirligi, sport tashkilotlari, Xalq ta'limi, Oliy ta'lim va boshqa qator vazirliklar, Respublika Kurash Akademiyasi, uning Termizdagi filiali doimiy ravishda tashkilotchilik qilib kelmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan madaniy tadbirlar negizida o'quvchi-yoshlarni jismoniy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni sportga jalb etish, ularni jismoniy tayyorgarlik sifatlarini mustahkamlash masalalari asosiy maqsadlardan biri bo'lib hisoblanmoqda. Bu yo'lda O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini (24.10.2002 yil) va shunga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori (30.10.2002 yil) eng yuksak darajadagi maqsadlarni amalga oshirishning dasturi bo'lib hisoblanmoqda. Bu farmon va qarorning ijrosi bir yil davomida o'zining samaralarini bermoqda. Ya'ni, deyarlik viloyatlarning barcha tumanlarida sportning u yoki bu turi bo'yicha yangidan sport maktablari tashkil etildi. BO'SMning sport inshootlari va ularga zarur bo'lgan asbob uskunalar, jihozlar, sportchilarga ust kiyim-boshlar bilan ta'minlashda ijobiy siljishlar yuz berdi. Futbol, kurash, tennis, sharqona yakka kurashlar va boshqa sport turlari bo'yicha iqtidorli murabbiylarni

ko'rik-sinovlardan o'tkazish, ularning malakalarini davr talablari asosida takomillashtirishga kirishilmoqda.

Toshkent, Surxondaryo, Jizzax, Samarqand va boshqa viloyatlardagi tuman-shahar, xalq ta'limi, "Yoshlik", "Talaba" sport uyushmalari o'z faoliyatlarini kuchaytirmoqda. Yana e'tiborli tomonlardan biri shundaki, juda ko'p BO'SMda bolalarni sportga jalb qilishda joylarda o'tkazilayotgan turli xil musobaqalarni kuzatish, tanlab olingan bolalarni maxsus sinov-tajribalardan o'tkazish, ularni sportga bo'lgan havas-qiziqishlarini suhbatlar orqali bilish, nazariy bilimlar hamda tushunchalarga ega bo'lgan darajalarini aniqlash kabi eng zarur ijtimoiy-pedagogik jarayonlarga kirishilmoqda. Bu o'z navbatida iqtidorli bolalarni tarbiyalash, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotlarini o'stirishga yo'l ochib bermoqda.

O'quvchi-yoshlar yaqin kelajagimizning poydevori bo'lishini barcha kishilar yaxshi his qilmoqda. Bu yo'lda bolalarni sport bilan shug'ullanirish, iste'dodli yoshlarning sport mahoratlarini tarbiyalab yetishtirish, ularni xalqaro sport musobaqalari, olimpiya o'yinlarida qatnashishga tayyorlash ancha murakkab bo'lgan tarbiyaviy jarayondir.

Jahonda eng nufuzli va qadrli tarbiyaviy sohalardan biri sportdir. Bunda Markaziy Osiyo, Osiyo o'yinlari, Jahon birinchiliklari Olimpiya o'yinlari, turli xil xalqaro turnirlar asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilmoqda. Ya'ni davlatlarning shon-shuhratini olamga yoyish, millat ko'zgusi sifatida yuqori sport natijalarini namoyish qilish ishlari milliy qadriyatlar tarkibidan o'rin olmoqda. Bu yo'lda yurtimizda olib borilayotgan turli-tuman sport tadbirlari guvohlik qilmoqda. Shu tufayli bolalar sporti milliy qadriyatlarimiz mazmunida chuqur o'rin egallash bilan bir qatorda, millat g'ururi, ifixori va qolaversa eng nozik mas'ulyatlarni o'zida mujassamlashtirmoqda. Demak, har bir oila, maktab, mahalla va mutasaddi davlat idoralari hamda jamoatchi tashkilotlar bolalar sportini milliy qadriyatlar tarkibi sifatida e'zozlashlari, o'z navbatida ularga amaliy yordam ko'rsatishlari zarurdir.

Qadriyatlarimizni o'z mazmunida chuqur singdirgan milliy kurashlari-miz, ko'pkari, uloq poyga kabi ot o'yinlari va harakatli o'yinlarni ommaviy ravishda tashkil qilish, ularni o'quvchi-yoshlarga o'rgatish hozirgi davr mazmuniga aylanmog'i kerak.

Jismoniy barkamollik hayot ko'zgidir. Unga yetishish va erishish uchun ilk yoshlikdan boshlab muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport mashqlari bilan shug'ullanish talab etiladi. Bu asosan oila sharoitida ota-onalarning e'tibori bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni birgalikda mashq-o'yinlarni bajarish, sport kiyimlari va jihozlari bilan ta'minlash, ayniqsa, mustaqil ravishda sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlarni (sport ham) doimiy ravishda bajarib borish bilan amalga oshiriladi. Bu jarayonlar ham ma'lum pedagogik texnologiyalar va usullarni talab etadi. Shu sababdan oiladagilar va ayniqsa o'quvchi-yoshlar bu yo'llarni puxta egallashlariga to'g'ri keladi.

O'qish, kasb-hunar egallash va samarali mehnat qilish, sog'lom turmush tarzi darajasiga erishish uchun ma'naviy va jismoniy barkamol bo'lishni hayot, ijtimoiy turmush taqozo etadi. Shu sababdan o'quvchi yoshlar va talabalarga jismoniy tarbiya ta'limini berish, ularning jismoniy barkamolligini tarbiyalashda ota-onalar, o'qituvchi-murabbiylar ilg'or tajribalarga ega bo'lishlari lozim. Bunda ilmiy-pedagogik sinov-tajribalarning namunali natijalariga tayanish, o'quv-uslubiy qo'llanmalardan samarali foydalanish, noan'anaviy vositalar, usullarni qo'llash kabi pedagogik texnologiya bilimlarga ega bo'lish jismoniy tarbiya va sport qadriyatlarini shakllanishiga katta yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki o'qish, kasb-hunar egallash va samarali mehnat qilish, sog'lom turmush tarzi darajasiga erishish uchun ma'naviy va jismoniy barkamol bo'lishni hayot, ijtimoiy turmush taqozo etadi. Shu sababdan o'quvchi yoshlar va talabalarga jismoniy tarbiya ta'limini berish, ularning jismoniy barkamolligini tarbiyalashda ota-onalar, o'qituvchi-murabbiylar ilg'or tajribalarga ega bo'lishlari lozim. Bu tajribalar xalqimizni uzoq o'tmishidan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan muqaddas qadriyatlarini hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturi Konsepsiyasi. Vazirlar mahkama-sining 1999 yil 27 maydagi qaroriga lova.

2. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, Toshkent, 1999.

3. Dilshodovich, I. S. (2023). DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMATION OF FAMILIAR COMPETENCE IN ADOLESCENT BOYS. *European journal of education and applied psychology*, (1), 3-6

4. Байджанов, Б. Х. (2020). Таълим жараёнида илғор хорижий тажрибаларни самарали қўллаш механизмлари. *Science and Education*, 1(2), 514-519.

5. Baydjanov, B. K. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Theoretical & Applied Science*, (7), 171-178.

6. Baydjanov, B. K. (2022). Methodology of Pedagogical Science and its Axiological Possibilities. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 352-363.

7. Baydjanov, B. (2021, June). HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION). In *Конференция*.

8. Baydjanov, B. (2021, June). HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION). In *Конференция*.

9. Baydjanov, B. (2021, March). COMPATIBILITY OF NEW RENAISSANCE PEDAGOGY AND JADID ENLIGHTENERS' VIEWS ON EDUCATION AND INFORMATION SECURITY. In *Конференция*.

10. Khaitboevich, B. B. (2020). Some features of protection of students from the threat of harmful information in the educational process. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(10), 69-72.

Dilshodovich, I. S. (2022). UMUM O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'G'IL BOLALARNI OILAGA TAYORLASHNING PSIXOLOGIK ILMIY ASOSLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 775-779.

11. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARDA FAMILISTIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANTIRISHNING XUQUQIY ASOSI SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1210-1215.

12. Dilshodovich, I. S. (2023). TALABALARNING FAMILISTIK KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(18), 874-879.

13. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARDAN FOYDALANISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 476-479.

14. Dilshodovich, I. S. (2022). OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE CONTENT AND LEPROSY. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(2), 117-123.

15. Dilshodovich, I. S. (2023). DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMATION OF FAMILIAR COMPETENCE IN ADOLESCENT BOYS. *European journal of education and applied psychology*, (1), 3-6